

**ZAMONAVIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASI AFZALLIKLARI
VA KAMCHILIKLARI**

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti o'qituvchisi

Aliqulova B.A.

*Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti ingliz filologiyasi 1-bosqich
talabasi Axtamov Diyorbek*

ANNOTATSIYA. *Ta'lim sohasining zamonaviy transformatsiyasi, uning asosiy jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar va innovatsion o'qitish metodlarining ta'lif jarayoniga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning muvozanatli qo'llanishi zarurligi asoslab berilgan. Maqola zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirishga qaratilgan.*

So'nggi yillarda, globallashuv va texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy ta'limning o'rniiga yangi o'qitish metodlari va raqamli texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi o'quvchilarda o'qitish tezligi va samaradorligini oshirmoqda. Ushbu maqola zamonaviy ta'limning asosiy jihatlarini, qulayliklari va kamchiliklarini hamda o'quvchilar va o'qituvchilarga ta'sirini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy transformatsiyasi, raqamli texnologiyalar, innovatsion o'qitish metodlari, an'anaviy, raqamli platformalar, Zoom, Google Classroom, elektron darslik, pandemiya davri, internet, innovatsion tizim,

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi yildan yilga davom etmoqda va uning ta'siri bevosita ta'lim sohasiga ham yangilik bo'lishiga zamin yaratmoqda. Hozirgi davrda o'quvchilar va o'quvchilar dars jarayonida turli raqamli platformalardan, masalan, Zoom, Google Classroom va elektron darsliklardan foydalanishmoqda. Bu vositalar pandemiya davrida muhim rol o'ynadi va ta'limning yangi turini — masofaviy ta'limni tashkil topishiga imkon yaratdi. Natijada, o'quvchilarning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

axborotni tez, qulay hamda o‘zlari xohlagan vaqtida va joyda olish imkoniyati yaratildi, bu esa ta’limning sifatini va rivojlanishini ta’minladi.

Zamonaviy ta’limda o‘qitish metodlari an’anaviy yondashuvlardan farq qilmoqda. Ilgari ta’lim jarayonida o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lsa, hozirda o‘quvchi markazidagi yondashuvga katta e’tibor qaratilmoqda.

Darslarda interaktiv usullar — munozaralar, guruhlarda ishslash va muammoli vazifalar bajarish orqali o‘quvchilar faollashtirilmoqda. Bundan tashqari, bu usullar turli xil qiziqarli platforma va dasturlar orqali amalga oshirilmoqda va ular o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish va jamoa bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni real hayotga tayyorlaydi.

Har qanday innovatsion tizim singari, zamonaviy ta’lim ham o‘z afzallikkleri va kamchiliklariga ega. Uning afzallikkleri qatoriga axborotga tezkor kirish, mustaqil o‘rganish imkoniyati, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlari xohlagan tempda ta’lim olishlari mumkinligi kiradi. Bunday imkoniyatlar borligi bilan bir qatorda, uning kamchiliklari ham mavjud. Bu tizimdan foydalanilganda doimiy internetga bog‘liqlik vujudga keladi va texnik nosozliklar — internet sifati yaxshimasligi bu ta’limning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotning kamayishi ta’lim sifati va tarbiyaviy jihatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, zamonaviy yondashuvlar an’anaviy metodlar bilan muvozanatli uyg‘unlikda qo‘llanilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasining zamonaviy transformatsiyasi o‘zida juda ko‘plab ijobiy imkoniyatlarni mujassam etgan. Ayniqsa, bu o‘zgarishlar pandemiya davrida sezilarli darajada asqotdi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni tezlashdi, o‘qitish metodlari esa yanada samaraliroq bo‘ldi. Shunga qaramay, bu tizimning ba’zi kamchiliklari mavjud bo‘lib, ularga e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy va an’anaviy yondashuvlarni birlgilikda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni zamonga mos tarzda tarbiyalash mumkin. Demak, zamonaviy ta’lim - bu kelajak sari yo‘naltirilgan va ta’limning samaradorligini oshiradigan muhim bosqichdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N. Q Haqnazarova. "Ta'lim transformatsiyasining zamonaviy xususiyatlari". Toshkent-2024
2. X.M Ergasheva. "Ta'limda raqamli texnologiyalar". Toshkent "Metodik nashriyoti"-2023
3. www.google.com
4. www.pedagog.uz